UDK: 37.035.3

IJTIMOIYLAShUV ShAROITIDA O'QUVChI YOShLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALAShDA MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Primova Fatima Abduraximovna
S D V M Ch B U T F. f.f.n
Qulmatov Norqobil Eshmamatovich
S D V M Ch B U T F. katta o'qituvchi
91-166-22-35.norqobil.65@mail.ru
ORCID: 0009-0009-7597-0072

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadallashib borayotgan ijtimoiylashuv va globallashuv sharoitida o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlar hamda boy ma'naviy merosning o'rni va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqotda o'quvchi yoshlarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va ma'naviy manbalarning o'quvchilar dunyoqarashiga ta'siri pedagogik va sotsiologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va milliy tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiylashuv, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, o'quvchi yoshlar, tarbiya, jamiyat taraqqiyoti, tarixiy xotira, pedagogik texnologiyalar.*

ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА, ВОСПИТАНИИ МОЛОДЫХ СТУДЕНТОВ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ В УСЛОВИЯХ СОЦАЛИЗАЦИИ

Аннотация: *В данной статье научно обосновывается роль natsionальных ценностей и богатого духовного наследия в воспитании у молодежи духа патриотизма, а также важность социального развития в условиях ускоряющейся социализatsii и глобализatsii. В исследовании педагогически и социологически проанализировано влияние осознания natsionальной идентичности, исторической памяти и духовных ресурсов на мировоззрение учащихся в процессе социальной адаптatsii молодежи. На основе результатов исследования разработаны практические и методические рекомендatsii по формированию чувства патриотизма у учащихся и повышению эффективности natsионального воспитания.*

Ключевые слова: *социализация, патриотизм, национальные ценности, духовное наследие, студенческая молодежь, образование, развитие сообщества, историческая память, педагогические технологии*

THE SIGNIFICANCE OF NATIONAL VALUES AND SPIRITUAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY IN EDUCATING YOUNG STUDENTS IN THE SPIRIT OF PATRIOTIC IN THE CONDITIONS OF SOCIALIZATION

Annotation: *This article scientifically substantiates the role of national values and rich spiritual heritage in educating young students in the spirit of patriotism and the importance of social development in the conditions of accelerating socialization and globalization. In the study, the impact of national identity awareness, historical memory and spiritual resources on students' worldview in the process of social adaptation of young people was analyzed pedagogically and sociologically. Based on the results of the research, practical and methodical recommendations were developed for the formation of a sense of patriotism in students and increasing the effectiveness of national education.*

Key words: *socialization, patriotism, national values, spiritual heritage, student youth, education, community development, historical memory, pedagogical technologies.*

1.Kirish. Tadqiqot ishining dolzarbligi: Bugungi zamonaviy dunyoda ro'y berayotgan shiddatli ijtimoiy-iqtisodiy, axborot va transformatsion jarayonlar yosh avlodning ijtimoiylashuv sharoitlarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Ijtimoiylashuv - bu shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar, bilim va tajribalarni o'zlashtirishi hamda faol ijtimoiy sub'ektga aylanishi jarayonidir. Bugungi kunda yoshlar axborot xurujlari, mafkuraviy tahdidlar va "ommaviy madaniyat" ta'siri kuchaygan sharoitda ijtimoiylashmoqda. Bu esa ularda milliy vatanparvarlik immunitetini shakllantirishni kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifaga aylantiradi.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ikki mustahkam ustunga - suyanchiqqa tayanamiz: birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan mustahkam ma'naviyat"[1] (Mirziyoev, "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi (2-bob, "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" bo'limida)). Jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi bevosita yoshlarning vatanparvarlik darajasi, o'z yurtining tarixiy-ma'naviy ildizlariga sodiqligi bilan belgilanadi. Shu sababli, o'quvchi yoshlarni ijtimoiylashuv jarayonida milliy

qadriyatlar va ma'naviy meros vositasida tarbiyalash mazmunini ilmiy tahlil qilish o'ta muhimdir. Shunday ekan biz tanlagan "Ijtimoiylashuv sharoitida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati." mavzusi bugungi kun uchun eng dolzarb va muhim mavzulardan biri hisoblanadi. **Muammoni hal qilish yo'llari:** Shuni aloxida ta'kidlab aytishimiz mumkinki, har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun uning milliy qadriyatlari va ma'naviy merosining saqlanishi muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros deganda ota-bobolarimizning ijtimoiy turmush tarzi, hayotiy tajribalari, o'tmish ajdodlarimizdan bizlargacha etib kelgan milliy ma'naviy qadriyatlar tizimi, va urf-odatlar tushuniladi. Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros uzviyligi jarayonning buzilishi har qanday jamiyatning nafaqat ma'naviy tanazzuliga, balki mafkuraviy bo'shliq (vaakum)ning paydo bo'lishiga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun Uchunchi Renessans ostonasida turgan Yangi O'zbekistonda ijtimoiylashuv jarayonlari kechayotgan bir sharoitda o'quvchilarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda va etuk komil insonlar qilib tarbiyalashda milliy ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy merosning uzviyligi va davomiyligi masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bugungi kungacha ijtimoiylashuv nazariyasi va vatanparvarlik tarbiyasi muammosi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli rakurslardada tadqiq etilgan.

Sharq mutafakkirlari ijtimoiylashuv va vatanparvarlikni axloqiy mukammallik, ma'naviyat, adolat, komil inson tarbiyasi va jamoaviy mas'uliyat tushunchalari orqali izohlaganlar. Misol uchun sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy (870–950) o'z asarlarida insonning jamiyatda ezgu fazilatlarni egallab kamol topishi ("Fozil odamlar shahri") jarayonini ta'riflab, insonni tabiatan ijtimoiy mavjudot ("madaniy bis-sab'") deb biladi. Uning fikricha, inson yolg'iz holda o'z ehtiyojlarini qondira olmaydi va baxtga erisha olmaydi. Ijtimoiylashuv - bu insonlarning baxtga erishish uchun o'zaro yordami va hamkorligidir. Fozil shahar (vatan) rahbari va fuqarolari adolat, ma'rifat va o'zaro ahillik asosida birlashgandagina vatanparvarlik va ijtimoiy tartib qaror topadi deydi. Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ijtimoiylashuv va vatanparvarlikni mehnat, ehtiyoj va ezgu odatlar orqali jipslashishda deb izohlaydi, ya'ni jamiyatning kelib chiqishini insonlarning yashash va muhofazalanish ehtiyojlari bilan bog'laydi. Inson jamiyatda yashash jarayonida o'z-o'zini tutish, boshqalarga ziyon etkazmaslik va umumiy manfaatlarga xizmat qilishni o'rganadi. U vatanni sevishni tarixiy xotira, o'z xalqi va yurtining o'tmishi hamda madaniyatini bilish va qadrlash bilan chambarchas bog'laydi. jamiyatning kelib chiqishini insonlarning yashash va muhofazalanish ehtiyojlari bilan bog'laydi. Inson jamiyatda yashash jarayonida o'z-ozini tutish, boshqalarga ziyon

etkazmaslik va umumiy manfaatlarga xizmat qilishni o‘rganadi. U vatanni sevishni tarixiy xotira, o‘z xalqi va yurtining o‘tmishi hamda madaniyatini bilish va qadrlash bilan chambarchas bog‘laydi. Abu Ali ibn Sino (980–1037) bo‘lsa oilaviy tarbiya, axloq va jamiyat qonunlariga bo‘ysunishda deb biladi. Ibn Sino «Tadbiri manzil» (Oila boshqaruvi) asarida ijtimoiylashuvning ilk bosqichi oila ekanini ta’kidlaydi. Bola oilada to‘g‘ri axloq va intizomni egallab, so‘ng jamiyatga qo‘shiladi. Jamiyatda har bir inson o‘z kasbi va foydali mehnati bilan o‘rnini topishi lozim. Insonning o‘z jamiyati uchun qiladigan foydali mehnati uning vatanparvarligi ko‘rinishidir deydi. Alisher Navoiy (1441–1501) esa ijtimoiylashuv va vatanparvarlikni komil inson va el-yurtga beg‘araz xizmat qilishda deb biladi. Ya’ni Navoiy ijtimoiylashuvning cho‘qqisini “komil inson” darajasiga etishda ko‘radi. Uning fikricha, haqiqiy vatanparvarlik va ijtimoiy burch — bu o‘z shaxsiy manfaatidan ko‘ra el-yurt, xalq manfaatini ustun qo‘yishdir (*“Odamiy ersang demagil odami, Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”*).. g‘arb sotsiologiyasida va T.Parsons ijtimoiylashuvni shaxs va jamiyat integratsiyasining asosiy mexanizmi deb baholagan. G‘arb sotsiologiyasida ijtimoiylashuv (socialization) va vatanparvarlik (fuqarolik va milliy jipslik) ko‘proq ijtimoiy institutlar, rol egallash, norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish hamda davlat va fuqaro munosabatlari nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilinadi. Emil Dyurkgeym (1858–1917) ijtimoiylashuvni jamiyatning yosh avlodga kollektiv axloq va normalarni singdirish jarayoni deb ta’riflaydi. Vatanparvarlik va ijtimoiy jipslik jamiyat a’zolari umumiy qadriyatlar (jamoaviy anglash) atrofida birlashganda paydo bo‘ladi. Ta’lim tizimi esa shaxsni jamiyat ehtiyojlariga moslashtiruvchi asosiy quroldir. Talkott Parsons (1902–1979) fikricha ijtimoiylashuv **-** bu shaxsning jamiyatdagi muayyan rollarni (masalan: fuqaro, xodim, oila boshlig‘i) o‘rganishidir. Inson oila, maktab va boshqa institutlar orqali ijtimoiy normalarni shu qadar chuqur o‘zlashtiradiki, natijada jamiyatda barqarorlik saqlanadi. Vatanparvarlik ushbu tizimning yaxlitligini ta’minlovchi «integrativ funksiya»ni bajaradi. Sharq mutafakkirlari yoshlarning ijtimoiylashuvi va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakillantirishda insonning ichki ma’naviy va axloqiy mezoniga (vijdon, adolat, el g‘ami) urg‘u bergan bo‘lsa, g‘arb sotsiologlari jamiyatning tashqi institutlari va tizimli mexanizmlariga (normalar, rollar, fuqarolik maqomi)ga ko‘proq e’tibor qaratganlar. **Taklif va tavsiyalar:** Insoniyat XXI asrga qadam qo‘yganidan keyin jahon miqyosida global axborot almashinuvi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi yangi O‘zbekistonda ijtimoiylashuv jarayonlarida o‘quvchi yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning ma’naviy olamida bo‘shliq (vaakum) vujudga kelmasligi uchun, yoshlarimizning qalbi va ongida sog‘lom turmush tarzini shakillantirishda, milliy ma’naviy qadriyatlarimiz va ma’naviy merosimizga nisbattan hurmat-e’htirom

tuyg'ularini bolaliklaridan boshlaboq shakillantirish bugungi kunda suv bilan havodek zarur bo'lib bormoqda. O'zbekistonlik olimlardan A.Erkaev (2018) va O.Musurmonova (2020) o'z tadqiqotlarida milliy qadriyatlar va sharqona tarbiya tizimining shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi o'rnini asoslab bergan. N.Jo'raev (2019) va M.Quronov (2021) pedagogik tadqiqotlarida o'quvchi yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirish ularning tarixiy xotira, ajdodlar merosi (Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi siymolar) va sharqona axloq qoidalariga munosabati orqali amalga oshishini ko'rsatib o'tgan. Ammo jadal axborotlashgan va raqamlashgan zamonaviy ijtimoiylashuv muhitida milliy qadriyatlarni va ma'naviy merosni o'quvchilar ongiga singdirishning zamonaviy interaktiv va innovatsion pedagogik mexanizmlarini yanada chuqurroq tadqiq etish talab etiladi. Zamonaviy davrda ma'naviy merosni pedagogik va psixologik jarayonga integratsiya qilish yo'llari quyidagicha amalga oshiriladi. Birinchidan: raqamlashtirish va zamonaviy formatlar orqali: Bunda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni quruq ma'ruza yoki pand-nasihat ko'rinishida emas, balki interaktiv raqamli kontent, onlayn-kvestlar, animatsiya va geymifikatsiya elementlari orqali etkazib berish.Ikkinchidan: interaktiv suhbat va debatlar orqali: ya'ni mutafakkirlarning asarlaridagi murakkab axloqiy va falsafiy savollarni o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilish, bahs-munozara muhitini yaratish. Uchunchidan: Psixologik treninglar va rolli o'yinlar orqali: tarixiy siymolarning hayotiy vaziyatlardagi qarorlarini qayta gavdalantirish orqali yoshlarda qaror qabul qilish va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish. Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning psixologik va pedagogik ishtiroki shaxsning ma'naviy o'zagini va shaxsiy immunitetini shakllantiradi. Bu esa yoshlarning globallashuv va raqamli axborot oqimi sharoitida o'z milliy va shaxsiy o'zligini yo'qotmasdan, barkamol inson bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi. **Kutilayotgan ijtimoiy samara(natija).** Bugungi kunda o'quvchilarimiz tarbiyasi – bu bir insonning, bir oila yoki bir ota-onaning, bir mahalla yoki bir maktabning ishi emas, balki barchamizning eng asosiy vazifamizdir. Agar, oilada ota-onalar, bog'chada tarbiyachilar, maktab va oliy ta'limda o'qituvchi va ustozlar, mahalla jamoatchiligi birgalashib, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsak o'quvchilarimiz Vatan va el-yurt koriga yaraydigan komil insonlar bo'lib ulg'ayadilar. Yaxshi tarbiya insonga ma'naviyat kabi ona suti, ota namunasi va ajdodlar o'giti bilan birga singadi. "O'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglar ichida tenglardandan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas" [2]. Bizningcha bu g'oya tarbiya bobida har bir ota-ona, har bir fuqaroga dasturil amal bo'lmog'i lozim. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoevning quyidagi so‘zlari yuqoridagi fikrlarning to‘la-to‘kis tasdiqlashini ko‘rishimiz mumkin “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, ibn Sinolar, Mirzo Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo ta’lim - tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib, xizmat qilishi lozim” [3]. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldilariga katta maqsad va marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz” [3.1]. **XULOSA**: Ijtimoiylashuv jarayonida milliy qadriyatlarning muhimligi: Ijtimoiylashuv sharoitida o‘quvchi yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng mustahkam poydevori milliy qadriyatlar va boy ma’naviy merosdir.Jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati: Yoshlarning vatanparvar va ma’nan barkamol bo‘lib etishishi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy barqarorligini ta’minlaydi. Tarixiy xotirasi va qadriyatlari mustahkam bo‘lgan yoshlar jamiyat taraqqiyotiga konstruktiv hissa qo‘shadi. Pedagogik tizimni modernizatsiya qilish: Milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirish ana’naviy passiv ma’ruza shaklidan faol, interaktiv va raqamli ta’lim texnologiyalari shakliga o‘tishi lozim. Amaliy tavsiyalar: Raqamli ta’lim kontentini boyitish: Ma’naviy meros va tarixiy simolar haqidagi ma’lumotlarni yoshlar ommabop foydalanadigan raqamli formatlarga (VR-muzeylar, mobil ilovalar, media-kontent) o‘tkazish. Maktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish: O‘quvchilarni milliy qadriyatlar bilan amalda tanishtiruvchi ijtimoiy-xayriya, obodonlashtirish va madaniy loyihalarda (“Keksalar duosini olamiz”, “Tarixiy xotira - boqiy qadriyat”) faol ishtirokini ta’minlash. Tanqidiy va media-savodxonlikni oshirish: Vatanparvarlik tarbiyasi doirasida o‘quvchilarda axborot xurujlarini farqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Mirziyoev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.464 b.

2.Karimov. I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisidagi nutqi. //“Xalq so‘zi”gazetasi, 2005 yil 29 yanvar.

3.Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. -Toshkent. 2020 yil 29 dekabr.

4.Abdullaeva, Sh. A. Ijtimoiy pedagogika va yoshlar ijtimoiylashuvi. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. 210 b.

5.Jo'raev, N. Tarixiy xotira va ma'naviy taraqqiyot. Toshkent: "Ma'naviyat", 2019. 185 b.

6.Musurmonova, O. Oila va maktabda o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish pedagogikasi. Toshkent: "O'qituvchi", 2020. 240 b.

7.Quronov, M. (2021). Millat va tarbiya: vatanparvarlik pedagogikasi. Toshkent: "Akademiya", 196 b.

8.Erkaev, A. Ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent: "Ma'naviyat", 2018. 176 b.

9.Durkheim, É. Education and Sociology. New York: The Free Press. 1956.

10.Parsons, T. The Social System. Glencoe, IL: Free Press 1951.